
Tumanimizda umumxalq xayriya hashari boshlandi

Erta tongdan tumanimiz bo'ylab "Mahalla obodligi – yurt farovonligi" shiori ostida umumxalq xayriya hashari boshlandi. Unda barcha tumandoshlarimiz faol ishtirok etmoqda. Mazkur umumxalq xayriya hashari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi tegishli farmoyishi asosida tashkil etildi. O'zbekiston "Mahalla" xayriya jamoat fondi, O'zbekiston faxriylarini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash "Nuroniylar" jamg'armasi, Mahalla va nuroniylarini qo'llab-quvvatlash, Uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish vazirliklari, Yoshlar ishlari agentligi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, keng jamoatchilik ushbu savobli g'oyaning tashabbuskoridir. Har yili bahor faslida, qutlug' bayramlar arafasida yaxshi niyatlar bilan hashar o'tkazish xayri an'anaga aylangan. Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi bu yilgi hasharga o'zgacha ruh bag'ishladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Mevali va manzarali daraxtlar ko'chatini, turfa gullar nihollarini o'tqazish, chor-atrofni yanada tartibli, toza, ozoda holga keltirish ishlari shu kunlarda yanada avj olgan. Umumxalq xayriya hashari doirasida mahallalar, turar joy mavzolari, ko'p qavatli uylarning atrofini tozalash, obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borilmoqda. Ziyoratgohlar, tabarruk maskanlar, bolalar maydonchalarini tozalashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hashar davomida ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan keksalarning holidan xabar olish, ularning xonadonlarini saranjom holatga keltirish ishlari ham ko'zda tutilgan. Qutlug' Ramazon ayyomi arafasida boshlangan umumxalq xayriya hashari xalqimiz mehr-oqibati, birdamligi, ahilligining yana bir amaliy ifodasidir. Kun davomida umumxalq xayriya hashariga oid reportajlar, lavha va xabarlar kanalimiz orqali kuzatib boring.

Siz ham obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish umumxalq xayriya hasharida faol ishtirok eting!

2022-04-30 11:50:18